

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI PHD  
03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**AXMEDOV ANVAR DIYOR O‘G‘LI**

**GLOBALASHUV JARAYONIDA OMMAVIY MADANIYAT VA  
INTERNET TAHDIDLARINING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA‘SIRI VA  
ULARNING IJTIMOiy-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the  
Psychological Sciences**

**Axmedov Anvar Diyor o‘g‘li**

Globalashuv jarayonida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarining yoshlar ongiga salbiy ta‘siri va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ..... 3

**Ахмедов Анвар Диер угли**

Негативное влияние массовой культуры и интернет-угроз на сознание молодежи в процессе глобализации и их социально-психологические особенности..... 21

**Axmedov Anvar Diyor ugli**

The negative impact of mass culture and internet threats on the minds of young people in the process of globalization and their socio-psychological characteristics ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....45

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD  
03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**AXMEDOV ANVAR DIYOR O‘G‘LI**

**GLOBALASHUV JARAYONIDA OMMAVIY MADANIYAT VA  
INTERNET TAHDIDLARINING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA‘SIRI VA  
ULARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/P369 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.psi-ik.uz](http://www.psi-ik.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Saidov Azamat Ismoilovich**  
psixologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Qodirov Umarali Do'stqobilovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Shukurov Rustam Eshonkulovich**  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

**Yetakchi tashkilot:** **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil «15.03» kuni soat 14.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1534 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «15» 03 kuni tarqatildi.

(2023 yil «15» 03 da 134 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Akramova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori, dotsent

**Atabaeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori, dotsent

**Z.T. Nishanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida internet makon shaxs hayotining ajralmas sohasiga aylandi. Butunjahon Yoshlar masalasini o'rganish Markazining 2018 yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida Internet foydalanuvchilari soni doimiy ravishda o'sib bormoqda: 2011 yildagi bu ko'rsatkich 28 % bo'lsa, 2018 yilda 62 % ga yetgan<sup>1</sup>. Ommaviy madaniyat va internet tahdidlarning yoshlar ongiga salbiy ta'siri natijasida shaxs tomonidan voqelikni passiv idrok etish, ongi va xulq-atvorida sa'lbiiy o'zgarishlar kelib chiqishi odatiy holatga aylanib boradi. Bu borada ommaviy madaniyat va internet tahdidlarning yoshlar ongiga sa'lbiiy ta'sir xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan ilmiy tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarning yoshlar ongiga salbiy ta'siri sharoitida uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, yoshlarni ommaviy madaniyat ta'sirlariga beriluvchanlik xususiyatlarining yosh davrlariga bog'liqligi, yoshlarni virtual olam tahdidlaridan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, talaba-yoshlarda internet bilan oqilona ishlay olish qobiliyatlarini qaror toptirish, internetdan oqilona foydalanishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni ilmiy-amaliy tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyatli muammolardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishi, ularning ta'lim-tarbiyasiga oid islohotlar olib borilib, turli destruktiv axborot tahdidlari ta'siridan himoya qilishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash», ... «yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish...»<sup>2</sup> vazifalari belgilandi. Bu esa globallashtirish jarayonida yoshlarni turli xil ommaviy madaniyat ta'sirlari va internet tahdidlarini keltirib chiqaruvchi omillardan himoya qilish masalalarini ilmiy o'rganishda yetarli asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida», 2018 yil 27 iyuldagi PF-5466-son «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi, 2018 yil 14 avgustdagi PF-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 30 iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlar, 2017 yil 28 iyuldagi PQ-

<sup>1</sup> Аналитический обзор: Жизнь в интернете и без него. [Электронный ресурс]. URL: <https://wciom.ru/index.php?id=236&uid=116780> (дата обращения: 20.11.19).

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi PF–60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.

3160-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida», 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 12 iyuldagi 577-son «Yoshlarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida» Qarorlar hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ijtimoiy ommaviy madaniyat va internet tahdidlaridan yoshlarni himoyalash, yosh avlodda axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish, globallasuv jarayonida internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni, ularning shaxs shakllanishidagi ta'siri masalalari bugungi kunda dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardandir. O'zbekiston olimlaridan S.N.Arifxanova, Sh.R.Barotov, X.X.Jabborov, O.M.Zaripov, V.M.Karimova, Sh.F.Mustafaeva, Z.T.Nishonova, J.J.Obloqulov, S.S.Sharopova, K.A.Farfieva, B.S.Shukurov, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov va boshqalar tomonidan ommaviy madaniyat zamonaviy jamiyat hodisasi sifatida uning mohiyati va asosiy belgilari shaxs xarakterologik xususiyatlariga ta'siri masalalariga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.A.Avetisova, Yu.I.Alekseeva L.R.Grebennikov, Y.L.Dotsenko, V.G.Kamenskaya, G.Kellerman, E.I.Kirshbauma, X.Konte, R.Lazarus, I.M.Nikolskaya, I.D.Stoykov, Yu.M.Lotman, I.A.Ilin, D.S.Lixacheva va boshqalar ommaviy madaniyat va internet tahdidlarining yoshlar ongiga sa'lbiiy ta'sirining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etganlar.

Xorij tadqiqotchilaridan Karen Shackelford, V.A.Shtroo, L.S.Brown, U.Neisser, W.Schneider, N.Xaan, M.A.Wollach va boshqalar tomonidan ommaviy madaniyat va internet tahdidlarini yoshlar ongi va xulq-atvoriga ta'sir masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillari instituti «Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari» kafedrasining «XXI asr psixologiyasida shaxs taraqqiyoti konsepsiyasi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2023 y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** globallasuv jarayonida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarining yoshlar ongiga salbiy ta'siri va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash va zarur tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

shaxsning ommaviy madaniyat va internet tahdidlari ta'siriga beriluvchanligi ifodalanishida yoshlarning xulq-atvoridagi «proeksiya», «reaktiv ta'lim», «kompensatsiya» muhofaza usullarini dominant xarakteri tufayli psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganligini dalillash;

yoshlarning ongiga ommaviy madaniyat va internet tahdilarini ta'siri natijasida shaxslararo munosabatlardagi pozitivlik, o'zligi bilan bog'liq destruktiv idrok etilishiga tayanch qadriyatlarning transformatsiyalanishining ijtimoiy omillarga bog'liqligini asoslash;

talabalarining ommaviy madaniyatni targ'ib qiluvchi axborotlarni qabul qilish motivatsiyasida yigitlarda «muloqot», «relaksatsion», «kompensatorlik», qizlarda «qayta faollashish», «bilishga oid» motivlarning xulqda dominantligi bilan bog'liq ravishda internetdan foydalanish ehtiyojining gender farqlar mavjudligini dalillash;

talabalarni ommaviy madaniyat tahdidlaridan psixologik himoyalashda kognitiv immunitetni refleksiv jarayonlar orqali shakllantirish, ijtimoiy ma'suliyatni rivojlantirishda korreksion-adaptiv ta'sir etish muhim va zarur ekanligini asoslash.

**Tadqiqot obykti** sifatida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarni yoshlar ongiga ta'sirini o'rganish jarayoni olingan bo'lib, tadqiqotga Samarqand davlat chet tillar institutidan 66 nafar, Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filialidan 60 nafar, Toshkent davlat pedagogika universitetidan 150 nafar talaba yoshlar, jami 276 nafar respondentlar jalb etilgan.

**Tadqiqot predmetini** ommaviy madaniyat va internet tahdidlarining yoshlar ongiga salbiy ta'sirining psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, Kellerman-Plutchikning «Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish» so'rovnomasi, Yanov-Bulmanning «Tayanch e'tiqodlar shkalasi» metodikasi, S.R.Panteleev va V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan Dj.Rotter shkalasining modifikatsiya qilish asosida moslashtirilgan «Subyektiv nazorat lokusi xususiyatlarini o'rganish» so'rovnomasi, «Axborotni qabul qilishga bo'lgan motivatsiyani aniqlash» mualliflik so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

shaxsning ommaviy madaniyat va internet tahdidlari ta'siriga beriluvchanligini darajaviy ifodalanishida talabalarining xulq-atvoridagi «siqib chiqarish», «proeksiya», «reaktiv ta'lim», «kompensatsiya» muhofaza usullarini dominant xarakteri tufayli psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganligi muhim ahamiyatga egaligi dalillangan;

talabalarining ongiga ommaviy madaniyat va internet tahdilarini ta'siri natijasida shaxslararo munosabatlardagi pozitivlik, omad, hayot tarzi, shaxsning o'zligi bilan bog'liq ekzistensiyalarning deformatsiyalanishi milliy Men destruktiv idrok etilishiga olib kelganligi tufayli tayanch qadriyatlarning transformatsiyalanishi ijtimoiy omillarga bog'liq ravishda asoslangan;

talabalarining ommaviy madaniyatni targ'ib qiluvchi axborotlarni qabul qilish motivatsiyasida o'g'il bolalarda «muloqot», «relaksatsion», «kompensatorlik», qiz

bolalarda «qayta faollashish», «bilishga oid» motivlarning xulqda dominantligi bilan bog‘liq ravishda internetdan foydalanish ehtiyojining kuchliligi tufayli gender farqlarning mavjudligi dalillangan;

talabalarni ommaviy madaniyat tahdidlaridan psixologik himoyalashda axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash, uzatish bilan bog‘liq kognitiv immunitetni reflektiv jarayonlar orqali shakllantirish, shaxsning milliy Meniga nisbatan pozitiv munosabatni, ijtimoiy mas‘uliyatni rivojlantirish muhimligiga ko‘ra shaxs iroda kuchi lokalizatsiyasiga korreksion-adaptiv tasir etish zarurati asoslangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

yoshlar xulq-atvori va ongiga ommaviy madaniyat, internet tahdidlarining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash mualliflik so‘rovnomasi tayyorlangan va Samarqand davlat chet tillar instituti hamda Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filialida aprobatsiya qilingan;

yoshlar uchun virtual madaniyatni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan va Samarqand davlat chet tillar instituti hamda Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filialining ta‘lim jarayonida qo‘llanilgan;

yoshlarni virtual madaniyatga yo‘nalganligining faolligini ta‘minlash bo‘yicha shakllantiruvchi «Ommaviy madaniyat va internet tahdidlaridan psixologik himoya» nomli psixologik trening dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma‘lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko‘rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ommaviy madaniyat va internet tahdidlari yoshlarning qadriyatlarini va ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlariga salbiy ta‘sir etishini oldini olish doirasida o‘rganilganligi, muammoga oid ilmiy tushuncha, tasavvurlarni kengaytirishi, yoshlar kelajak maqsadlar yo‘lida to‘g‘ri qaror qabul qilishlari va mavzuning psixologik mohiyatini chuqurroq anglashga doir ilmiy xulosalardan ijtimoiy va kognitiv psixologiya yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ommaviy madaniyat va internet tahdidlari yoshlarning qadriyatlarini shakllangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha to‘plangan nazariy va empirik ma‘lumotlar oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan «Ijtimoiy psixologiya» «Din psixologiyasi. Etnopsixologiya» «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» «Korreksion psixologiya. Psixoterapiya» fanlaridan o‘quv qo‘llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Globallashtirish jarayonida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarining yoshlar ongiga salbiy tasiri va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

shaxsning ommaviy madaniyat va internet tahdidlari ta'siriga beriluvchanligi ifodalanishida yoshlarning xulq-atvoridagi «proeksiya», «reaktiv ta'lim», «kompensatsiya» muhofaza usullarini dominant xarakteri tufayli psixologik himoya mexanizmlarining dalillanganligiga oid ilmiy ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 5 iyuldagi 12-son buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 5 iyuldagi 12-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda ommaviy madaniyat va internet tahdidlari ta'siriga beriluvchanligini darajaviy ifodalanishida ularni turli salbiy g'oyalarga beriluvchanlik ta'sirini kamaytirishga erishilgan;

talabalarning ongiga ommaviy madaniyat va internet tahdilarini ta'siri natijasida shaxslararo munosabatlardagi pozitivlik, o'zligi bilan bog'liq destruktiv idrok etilishiga tayanch qadriyatlarining transformatsiyalanishini ijtimoiy omillarga bog'liq ravishda asoslanganligiga oid xulosalar Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 5 iyuldagi 12-son buyrug'iga asosan «Din psixologiyasi. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 12 iyuldagi 12-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalar ommaviy madaniyat va internet tahdidlaridan himoyalashda milliy qadriyatlar va etnopsixologik xususiyatlarning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan;

talabalarning ommaviy madaniyatni targ'ib qiluvchi axborotlarni qabul qilish motivatsiyasida o'g'il bolalarda «muloqot», «relaksatsion», «kompensatorlik», qiz bolalarda «qayta faollashish», «bilishga oid» motivlarning xulqda dominantligi bilan bog'liq ravishda internetdan foydalanish ehtiyojining gender farqlarning mavjudligi dalillanganligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 5 iyuldagi 12-son buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» va «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» modullariga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 5 iyuldagi 12-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarni ommaviy madaniyat va internet tahdidlaridan himoya mexanizmlarini ishlab chiqishda yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilgan;

talabalarni ommaviy madaniyat tahdidlaridan psixologik himoyalashda kognitiv immunitetni reflektiv jarayonlar orqali shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish muhimligini korreksion-adaptiv ta'sir etish zarurati asoslangan ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 5 iyuldagi 12-son buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiyasi» va «Korreksion psixologiya. Psixoterapiya» modullariga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 5 iyuldagi 12-son ma'lumotnomasi). Natijada, ommaviy madaniyat tahdidlari va axborotlarni qabul qilish va qayta aniqlashga mo'ljallangan metodikalarning ilmiy-amaliy ta'minotini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

## **DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Globallashuv jarayonida ommaviy madaniyat tushunchasining ijtimoiy-psixologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida ommaviy madaniyat fenomeni, globallashuv jarayonida shaxsga bo'ladigan ta'sirlar muammosining tadqiq etilishi va uning shaxs faoliyatiga ta'siri, ommaviy madaniyat tahdidlarining yoshlar xulq-atvoriga salbiy ta'sirlari, mexanizmlari, xorij va mahalliy tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishi kabi tushunchalarning tahliliy sharhi keltirilgan. Ommaviy madaniyat tushunchasiga dahldor muammolarini o'rganishga doir manbalarni tahlil qilish, ushbu hodisaning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur bobda globallashuv jarayonida ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlari muammosi bo'yicha xorij olimlari hamda mamlakatimiz psixolog olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan, ommaviy madaniyat fenomeniga mualliflik ta'riflari hamda yoshlar ongida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantiruvchi omillarning psixologik mexanizmlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarga ilmiy izohlar berilgan.

Ommaviy madaniyat, axborot tahdidlarining bugungi kunda global mohiyat, yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qilish ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ayrim tomonlari o'zbekistonlik olimlar E.G'G'oziev, V.M.Karimova, Sh.R.Baratov, R.S.Samarov, B.M.Umarov, A.M.Jabborov, H.Bekpo'latov, R.Mamadaliyev, M.Quronov, S.Sharapova, X.X.Jabborov va ularning shogirdlari tomonidan, E.To'ffler, G.Lebon, A.Parshev G.M.Andreeva, N.N.Bogomolova, Ye.V.Shoroxovalarning ayrim tadqiqotlarida birlamchi guruh negizida o'rganilgan. Shuningdek, B.G.Ananayev, L.I.Ansiferova, A.L.Juravlev, A.N.Leontev, A.R.Luriya, Y.V.Shoroxova, A.I.Donsov, T.P. Yemelyanova, S.N.Konopatov, V.V.Yudin, G.G.Pochepsov va boshqalar tomonidan mafkuraviy tahdidlar, psixologik profilaktika tizimini yaratish haqidagi nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Global internet tarmog'ining yoshlar ongi va faoliyatiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning metodologik asoslari, mafkuraviy axborot maydonida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati, taniqli psixolog olimlarning ilmiy

yondashuvlari hamda axborot-psixologik xavfsizlikni shakllanishi va rivojlanishini o'rganish usullari, yoshlarda axborot manbalaridan foydalanish holati va madaniyati empirik o'rganish natijalari yoritilgan. Bundan tashqari tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, yoshlarni internet tahdidlaridan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari, yoshlar ongida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantiruvchi omillar, ommaviy madaniyat va internet tahdidlaridan himoya qilishda milliy qadriyatlarimizning etnopsixologik ahamiyati kabi muammolarga urg'u berilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo yoshlari, jumladan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50% foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. Gap shundaki, ko'pchilik yoshlar o'z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaydilar. «Hozirgi kunda yer yuzida 2,8 milliarddan ortiq internet foydalanuvchilari mavjud bo'lib, shu jumladan Xitoyda 500 million, Rossiyada 50 million, O'zbekistonda 10,5 milliondan ortiq foydalanuvchilar ro'yxatga olingan. Endilikda ijobiy yoki salbiy mazmundagi axborotlarning global tarmoqqa chiqishi uchun bir soniya yetarli». Dunyoda g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Shuningdek, mazkur bobda yuqoridagi axborot tahdidlariga qarshi immunitetni shakllantirish muammosining ijtimoiy-psixologik tomonlarini o'rganish va tadqiq qilishga mo'ljallangan omillar bayon etilgan.

Ushbu bobda tadqiqotimiz muammosidan kelib chiqqan holda, talabalarning global internet tarmog'ining yoshlar ongi va faoliyatiga tavsirining ijtimoiy-psixologik omillari aniqlash tadqiqot maqsadi etib belgilangan. Tadqiqotning ilmiy-nazariy, uslubiy va empirik vazifalar belgilanib, ularni ketma-ketlikda va bosqichma-bosqich bajarish mexanizmlari bayon etilgan. Bobda tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashning metodologik asoslari, konsepsiya hamda tamoyillar batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Globallashuv jarayonida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarning yoshlar ongiga ta'sirining ijtimoiy psixologik tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotning psixodiagnostik maqsadlari uchun qo'llanilgan metodikalarning umumiy tavsifi, mazmuni, modifikatsiya qilinganlik holati, umumiy yo'riqnomasi hamda metodikalar mazmunining tahlili asosida xulosalar, axborot-psixologik xavfsizlikni shakllanishi va rivojlanishini o'rganish usullari, yoshlarda axborot manbalaridan foydalanish holati va madaniyati empirik o'rganish natijalari yoritilgan.

Talabalarda himoya mexanizmlari, tayanch e'tiqodlari hamda axborot faolligining umumiy yo'nalganligi motivatsiyasini o'rganish natijalari va metodikalar orasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlili keltirilgan. Dissertatsiyaning mazkur bobida biz talabalarning kunlik ommaviy axborot vositalaridan foydalanish xarakteri va axborot faolligi umumiy yo'nalganligining bir necha yoki bitta ustun bo'lgan motivatsiyasini o'rganib, ahamiyatli natijalarni keltirib o'tganmiz.

Tadqiqotimiz davomida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarga qarshi immunitet shakllanganlik darajalarini aniqlashga qaratilgan «Psixologik himoya

mexanizmlarini diagnostika qilish» so‘rovnomasi «Kellerman-Plutchik so‘rovnomasi» asosida hududlar kesimida tahlil qilindi, 1-jadvalga qarang.

**1-jadval**

**Psixologik himoya mexanizmlarining hududiy farqlari (n=276)**

Omillar	Hudud	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	T	Ishonch darajasi
inkor etish	1	150	8,13	2,14	-,577	,564
	2	126	8,20	1,70		
siqib chiqarish	1	150	5,66	2,19	6,513	,000
	2	126	4,79	2,02		
Regressiya	1	150	6,34	2,28	,727	,468
	2	126	6,23	2,45		
Kompensatsiya	1	150	6,64	1,89	-,129	,897
	2	126	6,66	1,56		
Proeksiya	1	150	8,93	2,11	-7,689	,000
	2	126	9,89	1,87		
o‘rin almashtirish	1	150	5,64	2,34	,909	,364
	2	126	5,51	2,19		
Intellectualizatsiya	1	150	7,27	1,58	-1,599	,110
	2	126	7,44	1,78		
reaktiv ta’lim	1	150	6,22	1,61	-5,072	,000
	2	126	6,76	1,73		

Izoh: 1-Toshkent, 2-Samarqand; korrelyatsiya bog‘liqligi ( $p < 0,1$ )

Hududlar bo‘yicha ikkita shahar qamrab olindi: Samarqand va Toshkent. Huddudlar bo‘yicha psixologik himoya mexanizmini kuzatganimizda Toshkentlik talabalarda Samarqandlik talabalarga nisbatan siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi yuqoriligi namoyon bo‘ldi ( $t=6,513$ ;  $p > 0,001$ ). Bu jarayonni ongsiz ravishda qabul qilinmaydigan g‘oyalarni inkor qilinish hodisasi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqotlar talabalarda proeksiya psixologik himoya mexanizmi bo‘yicha ham ishonch darajadagi farqlarni kuzatish imkonini berdi ( $t=7,689$ ;  $p > 0,001$ ). Proeksiya psixologik himoya mexanizmi - bu boshqa insonga yoki obyektga nisbatan fikrlarning ko‘chishidir, masalan, hissiyot, motivlar, istaklar buni individ ongli holatda inkor qilishi mumkin. Proeksiya psixologik mexanizmining noaniq shakllari odatiy hayotda namoyon bo‘lishi mumkin, ko‘pgina talaba o‘g‘il bolalar va qizlar o‘zlarining kamchilik va nuqsonlariga nisbatan tanqidiy nazar tashlay olmaydilar, biroq boshqalarning kamchiliklarini osonlik bilan aniqlaydilar. Shu tufayli proeksiya psixologik himoya mexanizmi zarar keltiruvchi bo‘lishi mumkin.

O‘tkazilgan hududiy tadqiqotlar proeksiya psixologik himoya mexanizmining samarqandlik talabalarda toshkentlik talabalarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur holat proeksiya himoya mexanizmi yuqori bo‘lgan samarqandlik talabalarda nizoli vaziyatlardan ko‘r - ko‘rona xulosa chiqarish va bunga o‘z izohini

berishning yuqori ekanligini, toshkentlik talabalarda esa bunday vaziyatlarda asosan, dalillarga tayanish holatlari ustun ekanligini namoyon qildi.

Tadqiqotlar reaktiv ta'lim psixologik himoya mexanizmini ham samarqandlik talabalarda yuqoriligini ko'rsatdi ( $t=5,072$ ;  $p>0,001$ ). Samarqandlik talabalar istalmagan holatlari siqib chiqarilar ekan, so'ngra inkor qilinadi, masalan, himoyani kuchaytirish inkor etish holatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tadqiqotda qo'llanilgan Yanov-Bulmanning «Tayanch e'tiqodlar» metodikasi bo'yicha olingan natijalar 2-jadvalda berildi.

## 2-jadval

### Yanov-Bulmanning «Tayanch e'tiqodlar» metodikasining shkalalar kesimida hududiy farqlarini namoyon bo'lishi (n=276)

Tayanch e'tiqodlar shkalasi	Hudud	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	T	Ishonch darajasi
dunyoni bilish	1	150	3,09	,614	-738	,461
	2	126	3,12	,767		
insonlarni yaxshiligi	1	150	2,89	,830	-4,251	,000
	2	126	3,13	,885		
hayotning odilligi	1	150	2,84	,833	-2,998	,003
	2	126	3,00	,776		
hayotning boshqaruvchanligi	1	150	2,84	,896	-7,882	,000
	2	126	3,25	,751		
tasodif bo'layotgan voqealar	1	150	2,87	,763	-4,888	,000
	2	126	3,12	,842		
mening qadr-qimmatini	1	150	2,95	,960	-3,408	,001
	2	126	3,15	,874		
o'zini-o'zi boshqarish	1	150	3,12	,746	-2,583	,010
	2	126	3,24	,716		
omad darajasi	1	150	2,86	,933	-5,660	,000
	2	126	3,18	,836		

Izoh: 1-Toshkent, 2-Samarqand; korrelyatsiya bog'liqligi ( $r<0,5$ )

Biz ommaviy madaniyat va internet tahdidlarga qarshi immunitet shakllanishining psixologik omili bo'lgan psixologik himoya mexanizmlari orasida yosh, jins va hudud kesimida o'zaro bog'liqlik mavjudmi yoki yo'qligini «Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish» so'rovnomasi «Kellerman-Plutchik so'rovnomasi» orqali tekshirdik va ular quyidagicha korrelatsion ko'rsatkichlarni qayd qildi (3.-jadval).

Yosh ko'rsatkichlari va inkor qilish psixologik himoya mexanizmi o'rtasida ishonch darajasidagi bog'liqlik qonuniyati kuzatildi ( $r=0,084$ ;  $p<0,0x1$ ). Talabalar qancha yosh bo'lsa, inkor qilmasligi, ko'nikishi oson ekan, yoshi ulg'aygani sayin ularda inkor qilish holatlari oshib borar ekan, ya'ni ularda yangi holatlarga nisbatan tabiiy himoyalani hosil bo'lishi ma'lum bo'ldi. Talabalarning yoshlari ulg'ayishi, ulardagi kompensatsiya psixologik himoya mexanizmini ortib borishiga sabab bo'lar

ekan ( $r=0,080$ ;  $p<0.05$ ). Bu mexanizm ongli ravishda ishlatiladi, shuning uchun ham yosh oshishi aqlning o‘shishi natijasida yetmayotgan narsalarni boshqa holatlardan undirishga intilish kuzatilishi mumkin.

### 3-jadval

#### Talabalarda psixologik himoya ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘liqlik natijalari ( $n=276$ ), (Pirson korrelyatsiyasi)

Omillar	Inkor etish	Siqib chiqarish	Regressiya	Kompensatsiya	Proeksiya	O‘rin almashtirish	Intellectualizatsiya	Reaktiv ta’lim
Yoshi	0,84(**)	-0,052	-0,027	0,80(*)	0,029	- 0,117(**)	- 0,096(**)	- 0,083(*)
Jinsi	-0,018	0,032	- 0,114(**)	0,032	- ,119(**)	-0,076(*)	-0,057	-0,062
Hududi	0,018	- 0,202(*)	-0,023	0,004	0,236(*)	-0,029	0,051	0,159(*)
inkor etish	1	-0,016	-0,001	0,146(*)	0,149(*)	- 0,114(**)	-0,009	0,082(*)
siqib chiqarish		1	0,292(**)	0,171(*)	- 0,063(*)	0,223(**)	- 0,103(**)	-0,033
regressiya			1	0,292(*)	0,122(*)	0,483(**)	0	0,218(*)
kompensatsiya				1	0,085(*)	0,300(**)	-0,018	0,046
proeksiya					1	- 0,150(**)	- 0,192(**)	0,338(*)
o‘rin almashtirish						1	- 0,114(**)	0,039
intellectualizatsiya							1	0,181(*)
reaktiv ta’lim								1

Izoh:  $p<0,5$

Biroq natijalarning ko‘rsatishicha, yosh ko‘rsatkichlari intellektualizatsiya psixologik himoya mexanizmi bilan teskari munosabatga kirishishini ko‘rsatdi ( $r=-0,096$ ;  $p<0.05$ ). Ya’ni talabalarimiz katta bo‘lganlari sayin emotsiyalarini boshqarishni, omadsizliklarni tahlil qilishga o‘rganishar ekan. O‘rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi va yosh ko‘rsatkichlari o‘rtasida ham teskari aloqani kuzatishimiz mumkin ( $r=-0,117$ ;  $p<0.05$ ). O‘rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi ma’lum bir holat orqali ifodalanadi, aynan yosh bo‘lgan talabalarda o‘rin almashtirish yaqqolroq ko‘rinishi ma’lum bo‘ldi, yoshi katta bo‘lishi bilan o‘rin

almashtirish psixologik himoya holatlari kamroq namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Reaktiv ta'lim psixologik himoya mexanizmi ham yosh ko'rsatkichlari bilan teskari aloqaga kirishishi aniqlandi ( $r=-0,083$ ;  $p<0.05$ ). Talabalarning yoshi qanchalik kichik bo'lsa, ta'sirga tushishlar oson bo'lar ekan.

Psixologik himoya mexanizmlarining ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuzatganimizda quyidagi holatlar aniqlandi. Talabalarda inkor qilish psixologik himoya mexanizmi oshsa, kompensatsiya psixologik himoya mexanizmi ham oshib boradi. Ya'ni, talabalarda nizoli va vaziyatlarda inkor qilish psixologik himoya mexanizmi real yoki hayotiy kamchiliklarni ongsiz tarzda bartaraf etish pozitsiyasiga va yetishmayotgan jihatlarni boshqa narsa bilan o'rnini to'ldirish holatiga o'tadi. O'rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi va inkor etish psixologik himoya mexanizmi orasida teskari munosabatga kirishishi qayd qilindi ( $r=-0,114$ ;  $p<0.01$ ). Inkor qilish psixologik himoya mexanizmi kuchaygani sayin ma'lum bir holatlarda o'rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi pasayib borishini namoyon qildi. Talabalarda siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi oshgani sayin regressiya psixologik himoya mexanizmi ham oshib borishini ko'rsatdi ( $r=0,292$ ;  $p<0.05$ ).

#### 4-jadval

**Subyektiv nazorat lokusi bilan psixologik himoya mexanizmlarining o'zaro korrelyatsiyasi** (S.R.Pantelev, V.V.Stolinlarning Dj.Rotter shkalasi bo'yicha moslashtirilgan so'rovnomasi asosida), ( $n=276$ )

Omil-lar	inkor etish	siqib chiqarish	regressiya	kompensatsiya	proektsiya	o'rin almash-tirish	intel- lektuali - zatsiya	reak- tiv ta'l- im
Internal	0,070(*)	0,024	0,029	-0,006	0,021	-0,04	0,018	- 0,046
Ekster- nal	-0,033	-0,039	-0,004	0,028	-0,004	0,014	-0,024	0,042

Siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi asosan, o'zini idrok qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, talabalarni qandaydir ta'sir ostida qolish holatini bildiradi va shunday vaziyatlarda talabalar avvalgi va yetishmagan (bolalikdagi) istak va harakatlarni qoniqish formasiga qaytishni istashadi. Talabalardagi internallik holati inkor etish psixologik himoya mexanizmga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan ( $r=0,070$ ;  $p<0.05$ ), (4-jadval).

Ya'ni, talabalar qanchalik internal bo'lsalar, inkor qilish yuqori bo'lar ekan, internallik har bir vaziyatlarda mas'uliyatni o'ziga olish holatlari bilan bog'liqdir. Mas'uliyatni o'ziga olgan talabalarning inkor qilishga moyilligi aniqlandi. Statistik jihatdan tahlil etildi.

## 5-jadval

